

**TUSHDAGI BUYRUQ YOHUD ILM TALABIDAGI YIGITLARGA BO'LGAN
MARHAMAT**

Abdug'ofurov Bilolxon

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi

Ikkinchi bosqich talabasi.

bilolxonabdugofurov@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18391035>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur imom va hofiz Hasan ibn Sufyon Nasaviy rahimahullohning ilm talabida boshidan kechirgan og'ir mashaqqatlari, sabr va ixlos bilan kechgan hayotiy sinovlari hamda Alloh taoloning g'aybiy marhamati haqidagi ibratli rivoyat yoritiladi. Rivoyat orqali tolibi ilm uchun tavakkul, aqidaning softligi, riyodan yiroqlik va ilm yo'lida sobit bo'lishning naqadar muhim ekani ochib beriladi. Ushbu hikoya ilm talabidagi yoshlar uchun ma'naviy tarbiya va ruhiy quvvat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Hasan ibn Sufyon Nasaviy, ilm talabi, sabr, ixlos, tavakkul, g'aybiy marhamat, riyo, aqida softligi, tolibi ilm, ibrat, mashaqqat, Amir Tulun.

Islom tarixi ilm talabida sabr, mashaqqat va ixlos namunasini ko'rsatib bergan ulug' zotlar hayotiga boy. Ayniqsa, tolibi ilmning Alloh taologa bo'lgan tavakkuli, niyatining pokligi va aqidasi softligi sabab, kutilmagan joydan marhamat va yordamga musharraf bo'lgan voqealar qalbga chuqur ta'sir qiladi. Bunday rivoyatlar ilm yo'lida qadam qo'ygan har bir inson uchun ibrat, tasalli va umid manbaidir.

Quyida keltirilayotgan hikoya mana shunday ulug' ibratlardan biri bo'lib, mashhur imom va hofiz Abul Abbos Hasan ibn Sufyon Nasaviy rahimahullohning ilm talabida boshidan kechirgan og'ir mashaqqatlari va Alloh taoloning g'aybiy marhamati haqida so'zlaydi. Bu rivoyatni buyuk muhaddis Hofiz Ibn Asokir rahimahulloh o'zining «Tarix» asarida zikr qilgan.

Ushbu voqeada ilm talabidagi ixlos, riyodan qochish, sabr va tavakkulning naqadar ulug' ne'mat ekani, shuningdek, Alloh taolo O'ziga sodiq bandalarini qanday qilib kutilmagan yo'llar bilan qo'llab-quvvatlashi ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Shu bois, bu hikoya har bir tolibi ilm uchun yo'lchi chiroq, qalbga sukunat bag'ishlovchi ibratli manzara sifatida o'qilishiga loyiqdir.

Rosululloh sallallohu alayhi vasallam aytdilar: "Ulamolar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir".

Ma'lumki payg'ambarlikdan yuqori martaba yo'q. Endi manashu martabadagi insonlarga merosxo'r bo'lishlik sharafidan yuqori sharaf yo'q. Mana shunday sharaflı kishılardan biri haqıda Hofiz ibn Asokir rahimahulloh «Tarix» kitobida Xurosonning Niso shahridan bo'lgan, 90 yil yoki undan ko'proq yashab, 303 hijriy sanada vafot etgan imom, hofiz Abul Abbos Hasan ibn Sufyon Nasaviy haqida shunday rivoyat qiladi:

«Ibn Asokir sanadini Abul Hasan Safforga bog'lab aytadilar: «Biz shayx, imom Zohid Hasan ibn Sufyon Nasaviyning huzurlarida edik. Ahli fazl kishılardan bir guruhi u yerda yig'ilgan edilar. Ular shayxning yonlariga turli joylardan, uzoq shaharlardan kelgan bo'lib, ilm olish va hadis yozib olish uchun u zotning majlisiga qatnashishardi. U kishi (Hasan ibn Sufyon Nasaviy) bir kuni hadisdan dars beradigan majlisiga chiqdi va shunday dedi: «Yozishni boshlashdan avval, sizlarga bir voqeani aytib beraman, eshitinglar.

Biz bilamizki, siz (o'z uylaringizda) farovon va yaxshi hayotda kechirgan ahli fazllardansiz. Hozirda o'z vataningizni tashlab kelib, diyorlaringizdan uzoqda yuribsiz. Hatto yoru do'stlaringizni ham ilm talabi va hadisdan istifoda qilish yo'lida qoldirib keldingiz. Lekin siz bu ishingiz bilan ilmning haqqini ado etib qo'ydim va keragicha mashaqqat va qiyinchilik chekdim, deb o'ylamang. Hayotimda sodir bo'lgan, ilm talabi yo'lida chekkan mashaqqat va qiyinchiliklarimdan birini aytib beraman. Siz bunda Alloh taolo men va do'stlarimdan ilmning barakasi va aqidaning sofligi sabab, biz yo'liqqan qiyinchilik va tanglikdan qanday chiqarganiga quloq tuting:

«Yosh yigit edim. Ilm talabida va hadislarni yozib olish uchun vatanimni tashlab chiqdim.

Xuddi menday ilm toliblari bo'lgan do'stlarimdan to'qqiz nafari bilan birga Mag'ribning eng chekka yerlarigacha bordik shuningdek, Misrga ham bordik. U yerda birmuncha vaqt yashashimizga to'g'ri keldi. Biz do'stlarim bilan o'z davrining mashhur olimining darslariga qatnardik. Bu zot hadis ilmini juda yaxshi bilar edi. Sanadi oliy va rivoyati ham to'g'ri edi.

Bizga har kuni birozdan hadis yozdirar edi. Turgan muddatimiz uzayib ketib, oziq-ovqat, yeguliklarimiz tugashga keldi. Zarurat yuzasidan kiyim-kechak va eski narsalarimizni sotishga ham majbur bo'ldik. Keyin uni ham sarflab bo'lib, oxiri bir kunga yetgulik ham yeguligimiz qolmadi. Uch kecha-kunduzni ochlikda va qiyin ahvolda o'tkazdik, hech birimiz tuz totmadik. Shu tarzda, to'rtinchi kunning tongini ham ottirdik...

Ochlikdan oyoqlarimizdan mador ketdi, sillamiz qurib, qimirlashga holimiz qolmadi.

Chorasizlikdan uyat pardalari yechilib, yuzimiz shuvut bo'lishiga yaqin bo'ldi, qattiq xijolatda qolayozdik. Ya'ni, ochlik va muhtojlik sabab birovlardan so'ranish darajasiga yetib keldik. Ichimizdan birortamiz ham tilanchilikni o'zimizga ep ko'rmas va chin qalbdan bu ishni istamasdik.

Shunday bo'lsada, zarurat va vaziyat taqozosi tilanchilikka, odamlardan yegulik, non so'rashga majbur etib turardi.

Nihoyat o'zaro kelishib, qog'ozchalarga har birimiz ismlarimizni yozib, qur'a tashlashga qaror qildik. Olingan qog'ozchada kimning ismi yozilgan bo'lsa, o'sha tilanchilikka chiqishi hamda o'zi va sheriklari uchun yegulik keltirishi ushbu kelishuvimiz sharti edi.

Bir vaqt tashlagan qur'ada mening ismim yozilgan qog'ozcha chiqdi. Nima qilishni bilmay qotib qoldim. Buni (ya'ni, ko'chaga chiqib odamlardan so'ranib yurish) o'zimga hech ep ko'rolmasdim va bu hol menga o'ta uyatli, sharmandali ish edi.

Masjidning bir chetiga o'tib oldimda, ikki rakat namozni uzun qilib, ixlos bilan o'qidim.

Tanglik-mashaqqatimizni ketkazib, o'rniga kenglik, baraka berishini so'rab Alloh taoloning buyuk ismlari va ulug' kalimalari bilan uzoq duo qildim...

Ibodatimni tugatib ulgurmadim hamki, masjidga yuzi nurli, ozoda kiyingan, o'zidan xushbo'y hid taralib turgan bir yigit kirib keldi. U bilan birga qo'lida ro'molcha ko'targan xizmatkor ham bor edi. U: «Sizlardan qay biringiz Hasan ibn Sufyon?» dedi. Boshimni ko'tarib: «Hasan ibn Sufyon menman, nima yumushingiz bor edi?» dedim. U: «Xojam amir Tulun sizlarga salom aytdi.

Holingizdan xabar olishda g'aflatda qolgani va haqqingizga etiborsiz bo'lib, kamchilikka yo'l qo'yaniga uzr aytib yubordi. Shuningdek, sizlarga biroz muddatga yetgulik nafaqa ham berib yubordi.

Amirning o‘zi ertaga sizlarni ko‘rgani kelib, shaxsan uzr so‘ramoqchi», dedi.

So‘ng har birimizning oldimizga ichida yuz dinori bo‘lgan xaltachadan qo‘ydi. Biz bu hodisadan juda hayron qoldik va yigitdan buning sababini so‘radik. U: «Men amir Tulunning xos xodimlaridanman. Qarindoshlari va yaqin do‘stlariga mas’ulman. Bugun tongda amir bilan salomlashish uchun boshqa xizmatchilar bilan oldiga kirdim. U bizga: «Uylaringizga ketaveringlar, bugun yolg‘iz qolishni istayman», dedi. So‘ng hammamiz tarqaldik.

Uyga kelib, hali o‘tirib ulgurmasimdan amirning odami shoshib kelib qoldi va meni chaqirtirayotganini aytdi. Tezda yetib bordim. Amirni xonasida yolg‘iz, tanasidagi kuchli og‘riqdan yuzlari bir alfozda, o‘ng qo‘lini biqiniga qo‘yib olgan, og‘ir bir holda ko‘rdim.

U mendan: «Hasan ibn Sufyon va uning sheriklarini bilasanmi?» deb so‘radi. Men: «Yo‘q», dedim. U menga: «Falon qishloqdagi falon masjidga borgan... Mana bu xaltachalarni ham ol, unga va sheriklariga bularni ber, chunki ular uch kundan beri och, ahvollari og‘ir... Ularga uzrimni yetkaz va ertaga albatta ularni ziyorat qilishimni ham aytib qo‘y, hozir ularning suhbatiga borolmayman», dedi.

Yigit so‘zida davom etib: «Amirim, nima bo‘ldi o‘zi, bu ishlarga sizni nima undayapti?» deb so‘raganimda, amir shunday dedi: «Biroz dam olish uchun yotoqxonamga kirdim. Ko‘zim yumilib, endigina uyquga ketgan ekanman, bir tush ko‘rdim. Osmondan tushib kelayotgan yer yuzidagi insonlardan ko‘ra baquvvat, salobatli bir bahodirni (otliq chavandozni) ko‘rdim. Qo‘lida nayzasi ham bor ekan. Men bundan qattiq ajablanib, unga hayrat bilan tikilib, qotib turardim. U mana shu uyning oldiga yetib keldi va oldimga yaqinlashdi.

So‘ng nayzasining uchini biqinimga niqtab: «Tur, Hasan ibn Sufyon va sheriklarini top, tur ularni top, tur ularni top, ular uch kundan beri falon masjidda och yotishibdi», dedi.

Undan: «Sen kimsan?» deb so‘radim. U: «Men jannat eshigi posboniman», dedi. Uning nayzasining uchi biqinimga tiralib, sanchilib ketay deb turganidan jismimda juda qattiq og‘riq paydo bo‘ldi, qimirlolmay qoldim», dedi. So‘ngra amir bu pullarni hoziroq yetkaz, toki bu azobdan, og‘riqlardan tezroq qutulay, dedi».

Hasan ibn Sufyon aytadilar: «Biz bu hodisadan taajjubga tushdik. Ishimizni o‘nglagan Alloh taologa hamdu sanolar, shukrlar aytdik. Lekin ertaga amir bizni ko‘rgani kelib, bo‘lgan hodisadan odamlar voqif bo‘lishlari va ovoza bo‘lib ketishini istamadik. Shu sababli bu yerda qolmaslikka qaror qildik. Xavotirimiz shunda ediki, bo‘lib o‘tgan voqea sabab ta’rifimiz atrofga yoyiladi, obro‘yimiz oshib, mashhur bo‘lib ketamiz. Buning oqibatida esa amallarimizga, ilm talabidagi izlanishlarimizga riyo va sum’a aralashadi. Biz o‘sha kechasiyoq Misrdan chiqib ketdik. Keyinchalik esa, har birimizdan ilm va fazlda o‘z asrida tengi yo‘q, zamonasining taniqli olimlari yetishib chiqdi”.

Hasan hikoyalarini yana davom ettirdilar: “Amir Tulun ertasi kuni masjidga bizni ko‘rgani kelibdi, qidirtiribdi. Ketganimizni bilib, o‘sha biz vaqtincha istiqomat qilgan joyni butunlay sotib olishni buyuribdi. Keyin esa u masjidga beva-bechoralarni, ahli fazllarni, tolibi ilmlarni joylashtiribdi.

Biz yo‘liqqan muhtojlik va ehtiyojlar ularda bo‘lmasligi uchun ularning barchalariga nafaqa tayin qilib, ta’minotlarini zimmasiga olgan ekan. Albatta bularning barchasi dinning quvvati va e’tiqodning sofliги bilandir. Muvaffaqiyatga erishtirish Alloh dandir”. Barcha o‘rinlarda Tulun bo‘lib keldi. Lekin to‘g‘rirog‘i, ibn Tulundir.

Ushbu rivoyat ilm yo‘lining faqatgina osonlik va qulayliklardan iborat emasligini, balki sabr, mashaqqat va chin ixlosni talab qilishini yaqqol ko‘rsatadi. Hasan ibn Sufyon Nasaviy rahimahulloh va u zotning ilm yo‘lidagi hamrohlarining boshidan kechirgan holatlari tolibi ilm uchun ulkan ibratdir.

Zero, ilm talabida chekkan qiyinchiliklar zoye ketmaydi, agar niyat sof, aqida mustahkam va tavakkul chin bo‘lsa.

Bu voqea orqali Alloh taoloning O‘z yo‘lida sobit bo‘lgan bandalarini kutilmagan va aql bovar qilmas yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlashi aniq namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bu rivoyat riyo va shuhratdan qanchalik ehtiyot bo‘lish lozimligini ham o‘rgatadi. Chunki Hasan ibn Sufyon rahimahulloh va u zotning safdoshlari berilgan marhamatdan keyin ham mashhurlikdan qochib, ixloslarini saqlashni afzal ko‘rganlar.

Demak, ilm talabida eng muhim asoslar — sabr, ixlos, tavakkul va riyodan yiroqlikdir. Ana shu fazilatlar bilan bezangan tolibi ilmni Alloh taolo dunyoda ham, oxiratda ham yuksak darajalarga ko‘taradi. Muvaffaqiyat esa faqatgina Alloh taolodandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alloma Muhammad Avvoma, “Talaba yetishtirishdagi asosiy ko‘rsatmalar” kitobidan.
2. Muhammad ibn Abdulloh al-Xatib at-Tabriziy, “Mishkot ul - Masobih”, 47- betl, "Dar Ibn Hazm" Bayrut nashriyoti.
3. 3.Mulla Ali Qori, “Mirqot al-Mafotih”, 1- jild, 430-431- betlar. "Dar al - kutub al - ilmiyya”, Bayrut nashriyoti.
4. 4.Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy, “ Ihyo Ulumiddin”